

**ELLINIZM DAVRIDA YUNON-BAQTRIYA**

Amandavlatov Adham Absamat o'g'li

Termiz Iqtisodiyot va servis unversiteti Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi

E- mail : adhambekamandavlatov82@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ellinizm davrida Yunon-Baqtriya mavzusi tahlil va muhokama etildi.*

Kalit so'zlar: *Ellinizm, yunon, Baqtriya, davlat, Yunon-Baqtriya.*

KIRISH

Yunon manbalarida “Ming shahar o'lkasi” deb ulug'langan Baqtriyaning ko'hna va boy tarixi hozirgacha ko'pchilik olimlarni qiziqtirib kelmoqda. Baqtra hududi hozirgi Afg'onistonning shimoliy qismini, O'zbekiston va Tojikistonning janubidagi yerlarni o'z ichiga oladi. O'zining qulay geografik o'rni va tabiiy boyliklarga egaligini sababli Baqtriyaning iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy taraqqiyoti ancha erta va tez rivojlangan. Shuning uchun ham bu o'lka atrofdagi ko'plab davlatlarning e'tiborini o'ziga tortib kelgan. Baqtriya taraqqiyoti Axamoniylar (er. avv.VI –IV asrlar) hukmronligi davrida ham, Makedonskiy bosqini yillari ham to'xtamadi. Aksincha, Baqtriya yunon madaniyati tez o'zlashtirildi va mahalliy xalq madaniyati negizida yangi ellin madaniyati vujudga keldi. A.Makedoniyskiy sharqqa yurishari (er. avv 334- 324-yillar)dan boshlab, O'rtayer dengizining katta qismini, Misr, Kichik va Old Osiyo, O'rta Osiyoning janubiy va markaziy qismlari, Hind daryosining quyi oqimlarigacha bo'lgan hududlarning tarixiy taraqqiyoti yangi ellin davri boshlanadi.

ASOSIY QISM

Ellinizm atamasi dastlab nemis olimi I.G.Droyzen o'zining 1836-1843-yillarda chop etilgan 2 jildli “Ellinizm tarixi” asarida ishlatilgan va bu atama orqali ellinlar(yunonmakedonlar)ning sharq mamlakatlaridagi hukmronligini va ular madaniyatining sharq xalqlari madaniyati bilan uyg'unlashib hosil qilingan yangi madaniyat tushuniladi. Aleksandrning yunon va mahalliy madaniyatlarni o'zaro



uyg'unlashtirishdagi sayharakatlarini bilgan xolda, Salavkiylar aksincha tobe xalqlar orasida faqat yunon madaniyatini targ'ib etishni vazifa deb bilganlar. Salavkiylarning sharqda yunon madaniyati va dinning tozaligini saqlashga urinishiga qaramasdan bu hol ro'y bermadi. Aynan Salavk I (Mill. avv 312- 281) va Antiox I (Mil. avv 280-261) hukmronligi davrida Old va O'rta Osiyoda sharq ellinizm asoslari qaror topdi. Salavkiylarning Baqtriyadagi hokimi Diodot mahalliy zodagonlar yordami bilan ko'targan isyoni natijasida O'rta Osiyoda mustaqil Yunon-Baqtriya ellinistik podsholigi tashkil topdi. (Mil. avv. 250-yillar atrofi).

Ellinistik jarayonlar Salavkiylardan mustaqil bo'lgan Yunon-Baqtriyada o'zining yuqori rivoji bilan ajralib turadi. Yunon-Baqtriya davlatida yunonlar va mahalliy madaniyatlarning sintezi qisqa vaqtda o'zining ijobiy natijalarini berdi, shaharlar soni tez suratlarda o'sdi, dehqonchilik, chorvachilik ayniqsa, hunarmandchilik rivojlandi. Binobarin, Yunon-Baqtriya davlatiga asos bo'lgan Baqtriya, So'g'diyona, Marg'iyona qadim zamonlardan iqtisodiy jihatdan o'ziga to'q shaharlari ko'p, tabiiy boyliklari mo'l va iqlim qulayliklariga ega bo'lgan. Tez-tez bo'lib turadigan jangu-jadallarga qaramay Baqtriyaning taraqqiyoti bir zum ham to'xtamadi. Yunon tarixchilari Baqtriyani "Ming shahar o'lkasi" deb bekorga ta'riflanmagan. Mazkur tarif Baqtriyani ijtimoiy-siyosiy hayotida shaharlarning tutgan o'rnidan dalolat beradi. Haqiqatdan bu vaqtda Baqtriya va Zariaspi (hozirgi Mozori Sharif yaqinida), Termiz kabi shaharlarida hunarmandchilik, savdo-sotiq rivoj topdi. Chunonchi, hunarmandlar oltin, kumush, qo'rg'oshin, qalay, mis, bronzadan turli buyumlar, zebu-ziynatlar tayyorlaganlar. To'quvchilik, ko'ncilik, qurolsozlik kabi kasblar rivojlangan. Yunon podsholari hukmronligi davrida Yunon-Baqtriya jamiyatida ibtidoiy jamoa munosabatlari tezkor suratlarda yemirilib yangi quldorlik munosabatlari ancha aniq shakllari kira boshlagan. Shaharlar nufuzining o'sishi va harbiy asrlar kelishining ko'payishi bunga qulaylik yaratdi. A. Makedonskiy davridayoq Baqtriya shaharlarida yunon makedon askarlari ko'plab joylashtirilgan edi. Albatta bunday munosabatning tarixiy sabablari bor edi. Mintaqa buyuk ipak yo'li, G'arb va Sharq savdo yo'lining muhim qismida joylashganligi tufayli boshqa viloyatlarga nisbatan iqtisodiy-ijtimoiy jihatidan ancha oldin rivojlangan. Bu



viloyatning Yunoniston bilan aloqalari oldinroq rivojlangan. (Amudaryo xazinasi deb ataluvchi san'at buyumlari, ko'plab topilgan tanga pullar buning isboti). Ana shunday zamin bo'lgani uchun xam ellinizm davrida Baqtriyada ellinlashtirish jarayoni avval va tez o'tdi (Parfiya va Xorazmda bu jarayon ancha kechikdi).

Baqtriyaning yunon podsholari Diodot, Evtidem, Evkrat kabilar viloyatni Yunonistonning bir qismi deb qaradilar. Agar Parfiya, Sog'diyona, Xorazm uchun ellinistik madaniyat namunalari mil. avv III-II asrlarda moda, rasm sifatida qabul qilinsa, Baqtriyada madaniyatning tadrijiy taraqqiyoti mahsuli sifatida qaralgan. Shuning uchun xam ellinistik san'at namunalari ayniqsa Baqtriyada yetuk tus olgan. Baqtriyada va So'g'diyonada qadim davrlardanoq oltin qazib olingan. A.Makedonskiyning bu hududdan behisob oltinlarni yurtiga tashib ketganligi to'g'risida ma'lumotlar qadimgi tarixchilar asarlarida yozib qoldirilgan. Oltin, kumush va misdan tanga (tetrodraxma, draxma va obol)lar xam zarb qilishga qo'yilgan birinchi mustaqil qadamdir.

Baqtriyaning qazilma boyliklarini qayta ishlashda mohir bo'lganliklari xam ma'lum. Masalan, Baqtriyada oltin qayta ishlanib, pul zarb etishda ishlatiladigan, nekil xam xuddi shu yerdan chiqqan bo'lsa ajab emas. Agar kelajakda bu fikrni tasdiqlovchi dalillar topilsa, u holda yevropaliklar ta'kidlagandek, nekil XIX asrda ular tomonidan ixtiro etilmay, aksincha eng qadimgi davrlardanoq Baqtriya xalqlari nekilni qayta ishlashni uddalay olganliklari aniqlanadi. Yunon-Baqtriya tangalarining diqqatga sazovorligi shundaki, tanga pullar ellin tangalariga o'xshashdir. Biroq Yunonistonda xam bunday badiiy bezakla berib ishlangan pullar kam uchraydi. Rassomlar podsholarning suratlarini chizganlarida ularning g'ayrati va kuchini tasvirlashga e'tibor berganlar, bu esa Aleksandr sarkardalari avlodidan bo'lgan ellin (Yunon) podsholari suratlariga xos xususiyatdir. Pullarda podsholarning nomlari va unvonlari yunoncha yozilgan. Tangalarning ikkinchi tomoniga yunon xudolaridan birining tasviri tushurilgan. Diodot I va Diodot II tangalarida Zevs surati zarb etilgan, chunki yunoncha "Diodot" so'zi "Zevs ato qilgan" demakdir. Mill avv 225-yilda Kichik Osiyoning Magnesiya shahrida Evtedim Diodot II taxtdan ag'dargan va o'z tangalariga Magnesiya homiysi Gerakl suratini zarb etgan. Evtidemning o'g'li



Demitriy tangalarida ham Gerakl tasviri bo'lgan. Yunon-Baqtriya tangalarining diqqatga sazovorligi shundaki, tanga pullar ellin tangalariga o'xshashdir. Biroq Yunonistonda xam bunday badiy bezakla berib ishlangan pullar kam uchraydi. Rassomlar podsholarning suratlarini chizganlarida ularning g'ayrati va kuchini tasvirlashga e'tibor berganlar, bu esa Aleksandr sarkardalari avlodidan bo'lgan ellin (Yunon) podsholari suratlariga xos xususiyatdir. Pullarda podsholarning nomlari va unvonlari yunoncha yozilgan. Tangalarning ikkinchi tomoniga yunon xudolaridan birining tasviri tushurilgan. Diodot I va Diodot II tangalarida Zevs surati zarb etilgan, chunki yunoncha "Diodot" so'zi "Zevs ato qilgan" demakdir. Mill avv 225-yilda Kichik Osiyoning Magnesiya shahrida Evtedim Diodot II taxtdan ag'dargan va o'z tangalariga Magnesiya homiysi Gerakl suratini zarb etgan. Evtidemning o'g'li Demitriy tangalarida xam Gerakl tasviri bo'lgan.

Demetriy A.Makedonskiyga taqlid qilib tangalariga o'zini filning boshiga o'xshash jang qalpog'I qiygan xolda tasvirlangan. Tangalarda yozuv ikki tilda – yunon va kxaroshti yoki karoshti yozuvida bitilgan. Demetriy zarb qilgan tangalarda xalqning diniy tasavvurlari yunonmifologiyasi obrazlari bilan aralashib – qorishib ketgan. Bu tangalarda Nahid va Artemida suratlari birgalikda tasvirlangan. Quyosh hudosi Mitra Demetriy va Evtidem I tangalarida uchraydi. Salavkiy malikalaridan birining o'g'li Evkratid demetriyni taxtdan ag'dargan. Evkratid tangalarda Salavkiylar sulolasining homiysi Dioskurlar (ellinlarning ilohi egizak Kastor va Polidevk) ning suratlari zarb etilgan.

Evkratid tangalarida yunonchadan tashqari mahalliy yozuvlar borligi esa Hind daryosining yuqori qismlarida unng mavqeyi mustahkamligini bildirdi. Tangalarda uning unvoni o'zgarib, "shoh" o'rniga "Buyuk shoh" degan yozuv o'rin oldi. Ayni paytda tasviriy san'at, amaliy san'at, me'morchilik, zargarlik san'ati sohasida katta yutuqlarga erishildi. Jumladan, Baqtriyaning qadimgi shahri Begrom shahrida olib borilgan qazish ishlari vaqtida yuksak mahorat bilan fil suyagiga ishlangan san'at asarlari topilgan. 1978- 1979-yillarda Tillatepada olib borilgan qazishma ishlarida 25 ming donadan ortiq oltindan ishlangan san'at asarlari topilgan. Yoki Dalvarzintepada olib borilgan qazishma ishlarida 34 kg tilladan iborat 215 dona san'at asarlari topildi.



Antik davr O'rta Osiyo shahar madaniyati rivojlanishining eng yorqin xususiyatlari tasviriyl san'at bilan pul zarb etilishi natijasida madaniyat va moliya – iqtisod ishlarining taraqqiy etishidir. E.V.Ptveladze tadqiqotlarga ko'ra, Taxti Sangindan 4 ta, Termizdan 3 ta, Kampitepadan 2 ta, Marvdan 6 ta, Samarqand atrofida 5 ta Antiox I davriga oid (mil.avv 280- 268) tangalari topilgan. Nisbatan ko'proq topilma tangalar Yunon-Baqtriya davriga oid bo'lib, ular Diodot, Evtidem, Demetriy, Geliokl davrlaridan zarb etilgan. Baqtriyada yunon podsholari yunon polislari usulida shaharlar quradilar, bunolar qurilishida esa, yunon va sharq elementlari ishlatiladi. Arxeologlar G.A. Koshelenko va Z.V.Serditixlarning fikricha, shahar aholisining ko'pchiligi yunonlar bo'lgan uar qishloqlarda xam yashaganlar. Baqtriyada yunonlar qurgan shaharlarning xozircha ma'lum bo'lgan eng yirigi Afg'onistonning shimolida joylashgan Aleksandriya Oksiana ya'ni Amu Aleksandriyasi. Bu shahar 400 ga yerni ishg'ol etgan. Unda teatr, gimnasiyda savodi chiqqan bolalar ilmiy va jismoniy kamolot topganlar, kutubxona, xazina, yunon, xudolariga ibodatxonalar, davlat idoralari, saroylar, haykallar bilan bezatilgan bo'lib fontan, shaxsiy xovlilar mavjud ekanligini fransuz arxeologlari aniqlashdi. Shahar mil.avv IV asrda barpo etilib, mil.avv 147-yillar atrofida ko'chmanchilar tajovvuzi ostida vayron etilgan. Oyxonimni o'rgangan fransuz olimlari D.Shlyumberge va Pod Beriarlar yunoncha yozuvli ikki papyrus parchalarini topganlar, ularning birida falsafiy mavzudagi dialog, ikkinchisida sher bo'lgan, Afsuski, namgarchilikda kutubxonaning yer poliga yozuv iz bo'lib tushgan, yerda xam pergamentda xam saqlangan yozuv izini o'qib bo'lmagan. Arxeologlar topilgan idishlarida yunoncha yozuvlar bo'lganini aniqlaganlar.

Baqtriya Oyxonimidan tashqari boshqa Kofir qa'la, Yetmishtepa, Dilberjin, Saksonoxu, Taxti Sangin, Yovon, Tomoshotepa, Xalchayan, Yerqo'rg'on, Kanka kabi ellinistik tipdagi shaharlar mavjud bo'lganligini arxeologlar aniqlaganlar. Tog'ri bular Aleksandriya Oksiana Oriental Journal of Social Sciences ISSN: 2181-2829 www.supportscience.uz/index.php/ojss 52 darajasiga ko'tarila olmaganlar. Lekin bu shaharlarning ochilishi yunon shohlari Baqtriyada hukumronlik qilgan davrlardan ellinistik madaniyat, san'at o'lka bo'ylab keng tarqalganini ispotlaydi.



Bu davrda yunon o'ldov birliklari draxma bilan bir qatorda mahalliy o'ldov birliklari xam qo'llangan. Mahalliy oromiy alifbosi bilan birga yunon va braxma, kxaroshti yozulari qo'llangan. Sug'd yozuvi xam ishlatilgan. Ikki likobchadagi yunon yozuvlarini o'qish Sug'diyona va Baqtriyada raqamlar qo'llanilgani bilishga imkon beradi. Taxminan shu davrlada oromiy yozuvi asosida baqtriya yozuvi shakllangan. Mahalliy munajjimlar o'sha davrdayoq asosiy sayyoralarning nomlarini oydinlashtirganlar. Munajjimlar bir paytning o'zida matematik, fizik, va faylasuv bo'lishgan. Yil hisobi Salavkiylar davridan boshlangan(Mil.avv 312-yil 1-oktabr) Salavkiylar erasi boshlangan. Sug'diyona va Baqtriya aholisi bu davrda turli skif va eroniy lahjalarda so'zlashuvda davom etgan. Avestoda aytilishicha shaka va tatarlar turli tillarda so'zlashishgan. Biroq, tarixchilar guvohlik berishicha Dovondan Parfiyagacha barcha kishilar bir birini tushunishgan. Strabonning ta'kidlashicha, Baqtriya, Sug'diyona, Midiya va Eron aholisi so'zlashadigan tillar bir biriga o'xshash bo'lgan.Saroy tili esa bu davrda yunon tili edi.19.Markaziy Osiyo va Shimoliy Afg'onistonda rivojlangan ellinistik san'at asarlarini mavzu jihatidan uch guruhga ajratish mumkin: diniy, epic va folkor bilan bog'liq bo'lgan narsalar. Ayniqsa, mil.avv 4-2- asrlarda Baqtriyada rivojlangan ellinistik san'at diniy e'tiqod bilan bog'liq edi.20. Yunon-Baqtriya podsholigida teatr san'ati va musiqa rivojlangan. Yunon-Baqtriya saroylarida yunon aktyorlari, musiqachi va rassomlarining guruhlari saqlangan. Musiqa asboblari xilma-xil bo'lgan. Turli marosimlar, bayramlar, saroydagi tadbirlarda ud, nay, nog'ora, chiltor, burg'u kamoncha bilan chalinadigan asboblari ishlatilgan.

XULOSA

Umumiy olganda mil.avv 250-140/130-yillarda mustaqil davlat sifatida faoliyat yuritgan Yunon-Baqtriya davlati mahalliy asosda paydo bo'lib, unga ellin ta'siri kuchli bo'lgan. Ellinlar dunyosining bu bo'lagini yunonlar yaxshi bilmagan, chunki tez orada O'rtayer dengizi bilan Baqtriya o'rtasida Parfiya davlati barpo bo'lgan. Shunday bo'lsa xam Yunon-Baqtriya uzoq vaqtgacha ellinistik qiyofasini saqlab kelgan. Omuxtalik bu davr ma'daniyatini va san'ati uchun xos xususiyat bo'lib, mahalliy belgilarning Hindiston,Xitoy, Yunoniston ma'daniyati unsurlari



bilan aralashib ketganligini o'zida ifoda etadi. Yunon-Baqtriya davlati siyosiy jihatidan tarix sahnasidan ketgan bo'lishiga qaramasdan o'lka xalqlarining keyingi davrlar ma'daniyati rivojiga o'zining o'chmas izini qoldirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. F.Sulaymonov. G'arb va Sharq. T: O'zbekiston 1997.
2. A. Asqarov. O'zbek xalqining etnogezi va etnik tarixi. T: Universitet.2007.
3. A. Asqarov. O'zbekiston xalqlari tarixi. T: fan.1993
4. B. Eshov.O'zbekiston davlatchiligi tarixi. T: Ma'rifat.2009.
5. Z. A'lam. Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida T.2008.
6. A. Arsixovskiy. Arxeologiya asoslari. T: O'qituvchi .1970
7. F. Boynazarov. Qadimgi dunyo tarixi. T: Iqtisod-moliya 2006.
8. Y.S. Krushkol. Qadimgi dunyo tarixi.2-qism.: O'qituvchi.1975